

Ro'yxat raqami: 2

Bank aksiyadorlari navbatdan tashqari
Umumiy yig'ilishining
2023-yil "28" sentabrdagi
54-sonli qarori bilan

"TASDIQLANGAN"

Umumiy yig'ilish raisi

U.M.Oxunjonov



**"Biznesni rivojlantirish banki" ATB kuzatuv kengashi
to'g'risida nizom**

Toshkent – 2023-yil

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB
ICHKI ME'YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB kuzatuv kengashi to‘g‘risida nizom

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda - “bank” deb ataladi) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Nizom bankning kuzatuv kengashi maqomini belgilaydi va ishini tartibga soladi, kuzatuv kengash a‘zolarini saylash tartibini, shuningdek bank kuzatuv kengashi a‘zosining huquqlari va vazifalarini belgilaydi.

3. Bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

4. Bankning kuzatuv kengashi bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan bank boshqaruvi a‘zolari o‘rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta‘minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

5. Bankning kuzatuv kengashi a‘zolari bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashadi hamda o‘z vakolatlari va majburiyatlarini bajarish chog‘ida bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga oladi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta‘minlaydi.

2-bob. Bank kuzatuv kengashining vakolatlari

6. Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bank boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

bank kredit, depozit, investitsiya, dividend va bank tavakkalchiliklarini boshqarish siyosati tamoyillarini (prinsiplarini) tasdiqlash;

aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

bank ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish (yoki yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash) to'g'risidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

bankning boshqaruv a'zolarini (raisdan tashqari) tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash (agar bankda bunday lavozim nazarda tutilgan bo'lsa);

agar bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan bo'lsa yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bank kuzatuv kengashiga topshirilmagan bo'lsa, bankning yillik biznes-rejasini ma'qullash;

bankning ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

bank boshqaruvining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va bank kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni bank boshqaruvidan olish (Bank kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin);

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

dividenand miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

bankning xizmat ko'rsatish ofislarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

bankning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar hamda aloqador bo'lgan (affillangan) shaxslar bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

bankda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, bankning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish.

7. Bank kuzatuv kengashining vakolatlariga qo'shimcha ravishda quyidagilar kiradi:

korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash;

"Axborot siyosati to'g'risida nizom"ni tasdiqlash;

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB
ICHKI ME'YORIY HUJJAT

Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida qo'llaniladigan "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda to'g'ridan-to'g'ri xaridlarni o'tkazish to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash;

korporativ maslahatchining bank faoliyatida korporativ qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish yuzasidan amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi hisobotini eshitib borish;

bank boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlashiga, ularning boshqaruv va nazorat organlarida ishtirok etishiga ruxsat berish, bundan ularning boshqa banklar va tashkilotlarda ishga joylashuvi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

bankning boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda bankning faoliyati natijalari to'g'risida bank boshqaruvining hisobotini eshitish;

bankning ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida bank boshqaruvi tomonidan bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o'tkazish;

bank boshqaruvi a'zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish hamda ular bo'yicha bahslashish;

bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;

bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash.

8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga yoki bank ustaviga ko'ra quyidagilar bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilishi mumkin:

bankning ustav kapitalini ko'paytirish masalalarini, shuningdek bank ustaviga bankning ustav kapitalini ko'paytirish hamda bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

qonunchilikka muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilashni tashkil etish;

bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

bankning boshqaruvini tuzish, boshqaruv raisini saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

bank boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;

bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga qonunchilik va bank ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

9. Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun bankning boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

3-bob. Bank kuzatuv kengashining vazifalari

10. Bank kuzatuv kengashi bank faoliyatidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

universal tijorat banki sifatida bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga kompleks xizmatlar ko'rsatilishi uchun shart-sharoitlarni yaratish;

bankda zamonaviy korporativ boshqaruvni shakllantirish va bank ijro etuvchi organining samarali faoliyatini ta'minlash;

bankning maqbul darajada kapitallashuvini, likvidligini unga yuklangan vazifalarning bajarilishi va majburiyatlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun yetarli darajada saqlab turish.

4-bob. Bank kuzatuv kengashi a'zolarini saylash

11. Bank kuzatuv kengashi a'zolari 9 (to'qqiz) kishidan iborat tarkibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Bank kuzatuv kengashi a'zolari o'z mulohazalarining mustaqilligi bo'yicha talablarga rioya etishi kerak.

Ikki yoki undan ortiq bankning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lgan yoki a'zo bo'lish niyatida bo'lgan (mazkur banklar bir bank guruhiga tegishli bo'lmasa) hamda

vakolatlari Markaziy bank talabiga ko'ra muddatidan ilgari tugatilgan shaxslar bank kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Bank boshqaruvi a'zolari va raisi, bank (filiali)da mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar bankning kuzatuv kengashiga saylanishi (a'zo bo'lishi) mumkin emas.

12. Bankning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

13. Bank kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni bankning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar bank kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

14. Bank kuzatuv kengashi tarkibiga kamida ikki nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak. Bunda kuzatuv kengashining mustaqil a'zoriga nomzodlar Bank kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi.

15. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:
so'nggi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

Jamiyat jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining reestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u jamiyatni va kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan tartibda boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda qonunda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

5-bob. Bank kuzatuv kengashining raisi

16. Bank kuzatuv kengashining raisi, kuzatuv kengash a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kuzatuv kengash tarkibidan bank kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

Bank kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bank kuzatuv kengashi raisi o'rinbosari saylanishi mumkin.

Bank kuzatuv kengashi raisi va o'rinbosari vakolat muddati mobaynida bank kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylanishi mumkin.

17. Bank kuzatuv kengashi raisi:

kuzatuv kengash ishini tashkil etadi;

kuzatuv kengash majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini ochadi va uning rayosati tarkibiga kiradi;

bank nomidan boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasi tuzadi;

bank Ustavida va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa ishlarni amalga oshiradi.

18. Bank kuzatuv kengashi raisi joyida bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bank kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari yoki bank kuzatuv kengashi a'zolaridan biri amalga oshiradi.

6-bob. Bank kuzatuv kengashi majlisi

19. Bank kuzatuv kengashining majlisi bank kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, bank kuzatuv kengashi, boshqaruv

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB
ICHKI MEYORIY HUJJAT

a'zosining, shuningdek qonunchilik va bank ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi.

20. Bank kuzatuv kengashining majlisi, qoidaga ko'ra, har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

Bank kuzatuv kengashi majlisi masofadan turib axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokonferens-aloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilishi mumkin, bunda majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishlari va ular bo'yicha ovoz berishlari mumkin. Kuzatuv kengashining majlisi videokonferens-aloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilgan taqdirda, majlis bayonnomasida bu haqda ko'rsatiladi, ushbu majlis sirdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan deb e'tirof etilmaydi.

Har chorakda boshqaruv hisobotini eshitish bo'yicha kuzatuv kengashining majlislarini sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

21. Bank kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum bank kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lmasligi kerak.

22. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining soni yetmish besh foizdan kam bo'lib qolgan taqdirda, bank kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Bank kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek bank boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

23. Bank kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda bank kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Bankning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish va ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi masalalar bank kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

24. Bank kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini bank kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

25. Bank kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi, u bank kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilgandan so'ng o'n kundan kechikmay tuziladi.

26. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:
majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;
majlisning kun tartibi;
ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
qabul qilingan qarorlar.

27. Bank kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashning a'zolari tomonidan imzolanadi hamda ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javob beradi.

28. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda bank kuzatuv kengashi raisining hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

29. Bank kuzatuv kengashi qarorlari bilan bank aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin (bank siri, tijorat siri bo'lgan qarorlar bundan mustasno).

30. Bank kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni bank boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Bank kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot bank boshqaruviga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

7-bob. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari

31. Bank kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

bank kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, kuzatuv kengash majlislarida muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildirish va kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish;

bankning muayyan davr mobaynidagi faoliyati natijalari, bankni rivojlantirish rejalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;

bank kuzatuv kengashi vakolati doirasida zarur bo'lgan ma'lumot va tegishli hujjatlarni bank boshqaruvidan talab qilib olish.

32. Bank kuzatuv kengashi raisi, bank kuzatuv kengashi raisi o'rinbosari va kuzatuv kengash a'zolari hamda kuzatuv kengash kotibi o'z vazifalarini bajarganliklari uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan bank faoliyatining moliyaviy natijalari yoki korporativ boshqaruv tizimining mustaqil baholanishi natijalari hamda ularning kengash va qo'mitalar faoliyatidagi ishtirokiga mutanosib miqdorda haq olish huquqiga ega.

33. Kuzatuv kengash a'zolari kuzatuv kengash tomonidan u yoki bu tushdagi qaror qabul qilishga ta'sir o'tkazganliklari uchun bevosita yoki bilvosita mukofot olish huquqiga ega emas.

34. Kuzatuv kengash a'zolari bankning imkoniyatlari (bankning mulkiy va nomulkiy huquqlari, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlari, faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

35. Kuzatuv kengashining a'zosi bank bilan o'zi o'rtasida yoki o'ziga aloqador shaxs o'rtasida tuzilgan yoki tuziladigan bitim masalasi ko'rilayotgan kuzatuv kengashi yig'ilishida hozir bo'lmasligi, kuzatuv kengashi qabul qiladigan qarorga

ta'sir ko'rsatishga urinmasligi kerak. Bunday bitim to'g'risidagi qaror esa

manfaatdorlikka ega bo'lmagan kuzatuv kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Tomonlaridan biri bank bo'lgan bitimdan bankning kuzatuv kengashi a'zosi manfaatdor bo'lgan taqdirda, shuningdek bankning kuzatuv kengashi a'zosi va bank manfaatlari to'qnashuvi yuzaga kelgan hollatlarda ushbu a'zo kuzatuv kengashni mazkur holat bo'yicha xabardor qilishi kerak.

36. Bank kuzatuv kengashining a'zolari o'z vakolatlarini bank va uning aksiyadorlari manfaatlarida amalga oshirishi shart.

37. Mazkur nizomda ko'rsatib o'tilganlardan tashqari bank kuzatuv kengashining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

xatarlarni, shu jumladan, xatarga chidamlilik maqsadli ko'rsatkichlarini boshqarish;

bank faoliyati, mablag'larning to'g'ri sarflanishi va kreditlanishi ustidan joriy nazoratni (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida) amalga oshirish;

bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

bank daromadlari ustidan monitoringni amalga oshirish.

8-bob. Bank kuzatuv kengashi qo'mitalari

38. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va bank kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun bank kuzatuv kengashining a'zolaridan iborat tarkibda quyidagi qo'mitalar tashkil etiladi:

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi;

Risklarni nazorat qilish qo'mitasi;

Audit qo'mitasi;

Tayinlovlar va mehnatga haq to'lash qo'mitasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi.

39. Qo'mitalar uch kishidan iborat tarkibda, bank kuzatuv kengashi a'zolari orasidan bank kuzatuv kengashi raisi tavsiyasiga ko'ra ularning vakolat muddati davriga saylanadi.

9-bob. Bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish

40. Bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bank kuzatuv kengashi tomonidan quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

bank faoliyatini aksiyadorlar manfaatlarini hisobga olgan holda tashkil etish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishni, ovoz berish, ovozlarni sanash va qarorlar qabul qilish tartibotlarini nazorat qilish;

ustav kapitalini ko'paytirish yohud kamaytirish, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarish va boshqalar bilan ustav sarmoyasi ulushlari o'zgartirilganda aksiyadorlar huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik;

bankning samarali dividend siyosatini ishlab chiqish;

bank aksiyadorlarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

bank boshqaruvining noqonuniy va asoslanmagan xatti-harakatlari ustidan aksiyadorlarning takliflari va shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish;

bank boshqaruvining aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro samarali hamkorligi tartibini belgilash;

bank aksiyadorlarining huquq va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishini ta'minlash uchun Korporativ boshqaruv kodeksida belgilangan tavsiyalar amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish.

10-bob. Bank faoliyatini nazorat qilish

41. Bank kuzatuv kengashi bank boshqaruvidan vaqti-vaqti bilan (har chorakda kamida bir marta) bankning moliyaviy ahvoli va faoliyati, shu jumladan ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar va yozma hisobotlar oladi, shuningdek, boshqaruv raisi va ichki audit xizmati rahbarining axborotini eshitadi.

Ushbu hisobotlar ular to'g'riligini va tavsiyalarni amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadida bankning kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan sinchiklab tekshiriladi.

Bank kuzatuv kengashi bankning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholash bo'yicha ishlarining qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi.

Bank kuzatuv kengashi bankda Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini joriy etish yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun, bank boshqaruvi, ichki audit xizmati, bankda tashkil etilgan qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur bo'lganda bankning rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etishi mumkin.

42. Quyidagi moliyaviy koeffitsientlar bank kuzatuv kengashi tomonidan muntazam nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar hisoblanadi:

aktivlarga nisbatan daromad;

oddiy aksiyalar bo'yicha daromad;



umumiy foiz marjasi miqdori;

bankning aktivlarga nisbatan foizlar to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari;

barcha kreditlarga nisbatan shubhali va ishonchsiz kreditlar ulushi;

barcha kreditlarga nisbatan hisobdan chiqarilgan kreditlar ulushi;

yirik kreditlar summasi va bankka aloqador shaxslarga berilgan kreditlar



aktivlar va xususiy kapital rentabelligi;
depozit va kredit portfelidagi eng katta 20 (yigirma)ta mijoz ulushi.

11-bob. Kadrlar siyosatini amalga oshirish

43. Bank kuzatuv kengashi bankning kadrlar siyosatini, yuqori malakali bank rahbarlari va xodimlarini jalb qilish strategiyasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

44. Kadrlar siyosati qonunchilikka muvofiq:

bank xodimlarini mukofotlash, rag'batlantirish, boshqa ta'sir choralari va jazolash tizimini;

o'qitish va qayta o'qitish dasturini;

bo'sh o'rinlar paydo bo'lganda rahbarlikka ko'tarish tartibini;

bank rahbariyati ishdan bo'shatilishi majburiy bo'lgan holatlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

45. Bank kuzatuv kengashi:

bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari (kredit, investitsiya va boshqalar) bo'yicha siyosatlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni;

bank boshqaruvi a'zolari hamda asosiy xizmatlar rahbarlari ishini baholash mezonlarini;

axloq kodeksini va manfaatlar qarama-qarshiliklarini bartaraf etish chora-tadbirlarini;

omilkor bo'lmaganligi, vijdonan ishlamaganligi, manfaatlar qarama-qarshiligi tufayli bankning mansabdor shaxslari yuklangan vazifalardan chetlatiladigan shart-sharoitlar ro'yxatini tasdiqlaydi.

12-bob. Bankning maqbul darajada kapitallashuvini saqlab turish

46. Bank kapitalini saqlash va uning operatsiyalar ko'lami tavakkalchilik darajasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida bank kuzatuv kengashi:

bank tomonidan vujudga kelishi mumkin bo'lgan boy berishga qarshi Markaziy bank belgilagan miqdorlarda maxsus zaxiralar yaratilishini nazorat qiladi;


bank boshqaruvidan bank tavakkalchiliklari darajasi Markaziy bank belgilaganidan yuqori bo'lmashini ta'minlashni talab qiladi;

bank aksiyalarini joylashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

bankning kapital va umumiy zaxiralari yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlaydi.

13-bob. Bankni rivojlantirish biznes-rejasi tasdiqlanishi

47. Bank kuzatuv kengashi (mustaqil ravishda, chetdan maslahatchilar va ekspertlarni jalb qilgan holda) ishlab chiqilgan bankni rivojlantirish biznes-rejasini o'rganib chiqib tasdiqlaydi.



Ushbu biznes-reja o'z ichiga quyilagilarni oladi:
kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish siyosati;
kreditlarni nazorat qilish tartiboti;
aktivlar va passivlarni boshqarish tizimi;
investitsiyalash tartibi.

48. Bank kuzatuv kengashi bankni rivojlantirish biznes-rejasi bank boshqaruvi tomonidan amalga oshirilishini ta'minlaydi.

49. Bankni rivojlantirish biznes-rejasi, qoidaga ko'ra, unga zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish maqsadida, yiliga kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

14-bob. Bankning kuzatuv kengashi a'zolariga va a'zoliciga ko'rsatilayotgan nomzodlarga qo'yilgan talablar

50. Bank kuzatuv kengashining a'zolari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

51. Bank kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga doimo muvofiq bo'lishi shart.

52. Bank kuzatuv kengashining a'zoliciga ko'rsatilayotgan nomzodlar ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olinadi.

53. Bank kuzatuv kengashining a'zolarini baholash shartlari, baholash uchun zarur hujjatlar, malaka talablariga muvofiqlik mezonlari, shuningdek ularni kelishib olish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

15-bob. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi

54. Bank kuzatuv kengashi a'zolari bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchilikka va bank ustaviga muvofiq javobgardir.

55. Bank kuzatuv kengashi yig'ilishida bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda qatnashmagan yoki qarshi ovoz bergan bank kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

56. Bank kuzatuv kengashi a'zolariga nisbatan ular tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar uchun Markaziy bank tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar va sanksiyalar qo'llanilishi mumkin.

16-bob. Yakuniy qoidalar

57. Bankka yoki bankning nazorati ostidagi yuridik shaxsga aloqador bo'lgan shubhali faoliyat, firibgarlik yoxud suiste'molliklar to'g'risida xabar qilgan bank kuzatuv kengashi a'zosining shaxsi oshkor qilinmasligi ta'minlanadi.

58. Mazkur Nizom bankning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi.

Boshqaruv raisi

Boshqaruv a'zolari:

F.Gafurov

B.Bobojonov

B.Djumayev

A.A. Muratov

K.Ismoilij

S.Olimjonov

X.Maxmudov

**АКЦИЯДОРЛИК ТИЖОРАТ БАНКИ
“ҚИШЛОҚ ҚУРИЛИШ БАНК” АКЦИЯДОРЛАРИНИНГ
НАВБАТДАН ТАШҚАРИ УМУМИЙ ЙИГИЛИШИ**

Тошкент ш. А.Навоий кўчаси, 18 А

2023 йил 28 сентябрь, соат 11:00

Жойлаштирилган акциялар сони **15 557 065 844** донани, шундан овоз бериш ҳуқуқига эга акциялар сони **15 548 065 844** донани ташкил қилади.

Умумий йиғилишда қатнашган акциядорларнинг акциялари сони **15 298 325 472** донани ёки жами жойлаштирилган акцияларнинг **98,39** фоизини ташкил қилади.

54-сонли БАЁННОМАДАН КЎЧИРМА

**3. Банкнинг “Банк акциядорлари умумий йиғилиши тўғрисидаги”,
“Банк Кузатув кенгаши тўғрисидаги” ва “Банк Бошқаруви тўғрисидаги”
Низомларни тасдиқлаш тўғрисида**

А.Муратов ва Кузатув кенгаши аъзолари

УМУМИЙ ЙИГИЛИШ ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ушбу масала юзасидан банк Бошқаруви раиси А.Муратовнинг ахбороти маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагилар:

АТБ “Бизнесни ривожлантириш банки” акциядорлари умумий йиғилиши тўғрисида Низом 3-иловага;

АТБ “Бизнесни ривожлантириш банки” Кузатув кенгаши тўғрисида Низом 4-иловага;

АТБ “Бизнесни ривожлантириш банки” Бошқаруви тўғрисида Низом 5-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

3. Мазкур ички меъёрий ҳужжатлар амалга киритилиши муносабати билан банк акциядорларининг 2020 йил 10 июлдаги навбатдан ташқари 44-сонли Умумий йиғилиши қарори билан тасдиқланган:

Акциядорлик тижорат банки “Қишлоқ қурилиш банк”нинг акциядорлари умумий йиғилиши тўғрисида Низом;

Акциядорлик тижорат банки “Қишлоқ қурилиш банк”нинг Кузатув кенгаши тўғрисида Низом;

Акциядорлик тижорат банки “Қишлоқ қурилиш банк”нинг Бошқаруви тўғрисида Низом бекор қилинсин.

4. Банк Кузатув кенгаши ва Бошқаруви зиммаларига банк фаолиятини юритиш ва уни бошқаришда амалга киритилган Низомлар асосида иш ташкил қилиш вазифаси юклатилсин.

Кун тартибидаги ушбу масала овозга қўйилди:

Тарафдорлар:
15 298 325 472 та овоз

Қаршилар:
йўқ



Бетарафлар:
Йўқ

Раислик қилувчи

Котиб

У.М. Охунжонов

А.Ш. Абдуллаев



“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2023-yil 28-sentyabr

Toshkent shahri

67 -son

3. Ichki me’yoriy hujjat - **Nizom**
loyihasining turi:

2. Ichki me’yoriy hujjat - **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB kuzatuv**
loyihasining nomi: **kengashi to’g’risida**

3. Lingvistik ekspertizani - **A. Ravshanov**
o’tkazuvchi:

4. Lingvistik ekspertiza - **2023-yil 28-sentyabr**
o’tkazilgan sana:

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamaları to’g’ri qo‘llanilgan.

Ekspert:



(imzo)

A. Ravshanov



2023-yil 28-sentyabr

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA

Yuridik departament tomonidan **“ATB “Biznesni rivojlantirish banki” kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi** nizom loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda bank tizimini tartibga soluvchi boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, u bankning kuzatuv kengashi maqomini va vakolatlar doirasini, vazifalarini, huquq va majburiyatlarini, uning ishini, javobgarligini belgilaydi.

Ushbu ichki me‘yoriy hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadi.

Mazkur ichki me‘yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan.

Ushbu ichki me‘yoriy hujjat loyihasini tasdiqlash “ATB “Qishloq qurilish bank” Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiradi.

**Yuridik departament
bos’hlig‘i**

 **B. Djumayev**

